



O'ZBEK MUTAFAKKIRLARI VA DAVLAT ARBOBLARI ASARIDA HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASI G'OYA VA FIKRLARI VUJUDGA KELISH TARIXI

Qadamov Ro'zimat Xo'jaboy o'g'li

IIV Akademiyasi 3-bosqich kursanti

Annotatsiya: *Ushbu maqola mavzusining dolzarbligi o'zbek mutafakkirlari va davlat arboblari asarida huquqbuzarliklar profilaktikasi g'oya va fikrlari mazmuni va o'ziga xos xususiyatlari, o'zbek mutafakkirlari va davlat arboblari asarida huquqbuzarliklar profilaktikasi g'oya va fikrlarining nazariy hamda konseptual asoslari, shuningdek, O'zbek mutafakkirlari va davlat arboblari asarida huquqbuzarliklar profilaktikasi g'oya va fikrlariga doir ta'limotlarning ahamiyati va bugungi kundagi o'rni haqida yoritib o'tilgan.*

Bugungi kunda mamlakatimizda Prezidentimiz rahbarligida amalga oshirilayotgan respublikamizni rivojlantirishga qaratilgan tub islohotlar, jamiyatimizning barcha sohalarini zamon talablaridan kelib chiqib yangilashga, shuningdek fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga doir qabul qilinayotgan qilinayotgan qonunlar va Prezidentimizning Farmon va qarorlarining talablaridan, ularning ijrosini ta'minlash zaruratidan kelib chiqib, fuqarolarimiz orasida, ayniqsa, yoshlarimiz orasida yot g'oyalar ta'sirini oldini olish, ularda sog'lom ma'naviy immunitet yaratish, ichkilikbozlik, giyohvandlik kabi salbiy illatlarning fuqarolarimizga ta'sirini keskin kamaytirish, ular bilan bog'liq huquqbuzarliklarni oldini olish va unga qarshi kurashni takomillashtirish, bu jarayonlarni ilmiy-amaliy jihatdan atroflicha tahlil qilish, baholash va fuqarolarning yot g'oyalar, ichkilikbozlik va giyohvandlik ta'siri ostiga tushib qolishlarining oldini olishga doir ishlarga chuqur yondashish va jamiyat uchun foydali taklif va tavsiyalar ishlab chiqish xalq farovonligi va yoshlarimiz kelajagi katta ahamiyat kasb etadi. "YAngi O'zbekiston jahon maydonida kuchli salohiyat, munosib obro'-e'tiborga ega bo'lgan, har tomonlama obod va farovon mamlakatga aylanadi. Men bunga nafaqat ishonaman, balki shu yo'lda bor bilim va tajribamni, kuch-g'ayratimni safarbar etishga hamisha tayyorman"¹³. Barcha yurtdoshlarimizni ana shunday ulug' safda – YAngi O'zbekiston bunyodkorlari qatorida bo'lishga da'vat etaman. O'ylaymanki, insonparvarlik ruhi bilan yo'g'rilgan bunday islohotlarimiz buyuk Alisher Navoiy bobomizning bitta ko'ngli o'ksik odamni xursand qilish – Ka'bani obod etish bilan barobar, degan teran ma'noli so'zlariga, mehroqibat, saxovat va olijanoblik kabi fazilatlarini doimo qadrlab, ulug'lab yashaydigan xalqimizning orzu-intilishlariga har tomonlama uyg'un va hamohangdir.

¹³ "Янги Ўзбекистон" газетаси. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев. ⁴ Ўша манба.



“Biz yangi sharoitda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni kuchaytirishga intilmoqdamiz. Bunday yondashuv – bugungi va kelgusi rivojlanishimiz uchun mustahkam poydevordir. SHu ma’noda, YAngi O’zbekistonni barpo etish – yaqin va olis tariximiz, betakror va noyob madaniy boyliklarimizni yanada chuqur o’rganib, ularga tayanib, mustaqil milliy taraqqiyot yo’limizni yangi bosqichda davom ettirish demakdir. Keyingi yillarda madaniy-gumanitar yo’nalishda – madaniyat, kino, raqs va tasviriy san’at sohalarini, adabiyot va kitobxonlikni rivojlantirish bo’yicha amalga oshirayotgan ishlarimiz xalqimizga yaxshi ma’lum, albatta. Xususan, xalqaro maqom anjumani, baxshichilik va milliy hunarmandchilik festivallarini tashkil etganimiz va yuksak saviyada o’tkazganimiz”⁴ YAngi O’zbekistonni dunyoga keng targ’ib etishda muhim ahamiyatga ega bo’ldi. Milliy tariximizni xolis va haqqoniy tadqiq etish uchun bugungi kunda O’zbekistonga oid xorijdagi madaniy boyliklarni tadqiq etish markazi, Fanlar akademiyasi qoshida O’zbekistonning yangi tarixi markazi, “O’zbekiston tarixi” telekanali faoliyat ko’rsatmoqda. Islom dini rivoji yo’lida beqiyos xizmat qilgan buyuk muhaddis bobolarimizning diniy va ilmiy-ma’naviy merosini o’rganish va targ’ib etish maqsadida Samarqandda Imom Buxoriy, Surxondaryoda Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari, shuningdek, Toshkentda O’zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Imom Moturidiy xalqaro ilmiytadqiqot markazi ish olib bormoqda. Toshkent shahrida barpo etilayotgan O’zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazi xalqimizning boy diniyma’naviy merosini chuqur o’rganish va dunyoga targ’ib etish, yosh avlodimizni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda beqiyos o’rin tutadigan ilm-ma’rifat markaziga aylanadi.

Hozirgi murakkab va shiddatli zamonda ma’naviy-ma’rifiy ishlarning o’rni va ta’siri tobora ortib borayotganini hisobga olib, bu sohadagi faoliyatimizni yanada kuchaytirishga alohida ahamiyat berilmoqda. “Ma’naviyat va ijodni qo’llab-quvvatlash maqsadli jamg’armasini tashkil etish to’g’risida” hamda “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida” shu yil mart oyida qabul qilingan Prezident qarorlari ayni shu sohadagi vazifalarni samarali hal etishga qaratilgandir. YAngi O’zbekiston nufuzli xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarda barcha sohalar qatori ma’naviy-ma’rifiy masalalarga oid tashabbuslarni ham dadil o’rtaga qo’ymoqda. Bu haqda so’z yuritganda, mamlakatimiz tomonidan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida “Ma’rifat va diniy bag’rikenglik” rezolyutsiyasini qabul qilish bo’yicha ilgari surilgan tashabbus xalqaro jamoatchilik tomonidan keng qo’llab-quvvatlandi. YAqinda mazkur rezolyutsiya qabul qilinganini alohida ta’kidlash lozim.

SHuningdek, Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashining videoanjuman shaklida o’tgan sammitida ilm-fan, ta’lim, madaniyat va san’at sohalarini, shuningdek, turkiy dunyo birligini rivojlantirishga ulkan hissa qo’shgan atoqli shaxslarni rag’batlantirishga qaratilgan yana bir muhim tashabbusimiz qabul qilinib, Turkiy kengashning Alisher Navoiy nomidagi xalqaro mukofoti ta’sis etildi. “Biz buni barcha turkiy xalqlarning faxru iftixori bo’lgan hazrat Alisher Navoiy bobomizga, shunday



ulug' zotlarni tarbiyalab voyaga yetkazgan xalqimizga bo'lgan yuksak hurmat-ehtiroim ifodasi, deb bilamiz"¹⁴.

Har bir yosh avlod jamiyatning siyosiy, huquqiy, axloqiy madaniyatini egallaganda, o'zidan avvalgi avlodlarning ijtimoiy-siyosiy tajribalariga tayanadi va ularni o'z ongidan o'tkazadi, yaxshilarini olib, faoliyatida tadbiiq qiladi, bu bilan o'zining madaniyatini yuksaltiradi. Yoshlarda huquqiy, siyosiy axloqiy madaniyatni qaror toptirishda avvalo ularning dunyoqarashlarida, tafakkurida umuminsoniy qadriyatlar, milliy qadriyatlar bilan uyg'unlikda milliy istiqlol mafkurasi ham singishi lozim. Ana shu dunyoqarash shakllangandan so'ng uni himoya qilishga qodir huquqiy, siyosiy, axloqiy madaniyat shakllanishiga shart-sharoitlar yaratish zaruriyati tug'iladi. Bizga ma'lumki O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov «Biz mutafakkirlarimizning qutlug' merosidan butun xalqimiz, jumladan, yoshlarimizning ham bahramand bo'lishiga, ularning ma'naviy muhitda kamol topishiga, islom dinining insonparvarlik falsafasi, buyuk g'oyalari yosh avlod yuragidan ham joy olishiga sharoit yaratmoqdamiz. Boshqacha aytganda, biz farzandlarimizni dunyoviy bilimlar bilan bir qatorda Imom Buxoriy to'plagan hadislar, Naqshbandiy ta'limoti, Termiziy o'g'itlari, YAssaviy hikmatlari asosida tarbiya qilmoqdamiz», – deb ta'kidlangan edi. Bugungi kunda yoshlarning huquqiy madaniyati masalasini va uning yozma tarixiy an'analarini tiklash muhim ahamiyat kasb etmoqda. SHu bois talaba-yoshlar huquqiy madaniyatini shakllantirishning nazariy jihatlarini ilmiy o'rganish ajdodlarimizdan qolgan boy yozma manbalarga murojaat qilishni taqozo qiladi.

Ma'lumki, X-XV asrlarda YAqin va O'rta SHarq, Markaziy Osiyo va Eron mintaqalarida Arab xalifaligining siyosiy ahamiyati zaiflashuvi jarayonida birin-ketin Buvayxiylar, Somoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar, keyinroq, Temuriylarning mustaqil va qudratli davlatlari vujudga keldi. Bag'dod, Qohira va Damashq bilan bir qatorda Buxoro, Samarqand, Hirot, Isfaxon, SHeroz shaharlari fiqh va madaniyat markazlariga aylandi. Bu davrda xalqlarning o'z davlatchilik tarixiga qiziqishi, o'z milliy davlatchilik an'analarini tiklashga intilishi kuchaydi. Masalan, Bolasog'unlik YUsuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg'ariy, Ahmad YUgnakiy, Ahmad Yassaviy, YUsuf Xorazmiy kabi shoir, mutafakkirlar turkiy tilda ijod qilib, ularda o'z xalqlarining milliy davlatchilik an'analarini, fiqh an'analarini, axloqiy, ma'naviy merosini tiklashga intildilar. XIV asrning ikkinchi yarmida mo'g'ullar istilosiga qarshi ozodlik harakati natijasida buyuk sohibqiron Amir Temur davlatining vujudga kelishi bilan Markaziy Osiyoda ilm-fan, madaniyat, adabiyot, me'morchilik va qurilishda katta yuksalish yuz berdi. Amir Temur va Temuriylar davri huquqiy madaniyati fiqhning ahamiyatga molik yutuqlarini yaratdi. XV asrda milliy davlatchilik, adolat, hukmdor va fuqaro huquqiy munosabatlarining badiiy talqini Alisher Navoiy ijodida o'z kamoliga yetdi. Sharq mamlakatlarida vujudga kelgan ijtimoiy-huquqiy tafakkurda davlatchilik g'oyalarining keng tarqalishiga zamin yaratdi. Fuqaro huquqiy tafakkurida eng ezgu orzu-umidlar,

¹⁴ Миллий тараккиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Ш.М.Мирзиёев. – Тошкент : Ўзбекистон, 2017, 206-бет.



tenglik, birodarlik, adolatli podshoh ideali, baxtsaodatga eltuvchi mukammal davlat to'g'risidagi ta'limotlar o'zining nafaqat falsafiy, balki huquqiy ifodasini ham topdi. Bu davrdagi huquqiy hurfikrlilik asosida davlat va jamiyatga yangicha qarash shakllandi, davlat, jamiyat va har bir fuqaroning huquq va burchlari yangicha talqin etila boshlandi. Ayniqsa, davlatning eng yaxshi tuzumlari, davlat qurilishining eng yaxshi shakllarini izlashda O'rta asrlardagi podshohning ilohiy irodasi haqidagi umumiy gaplar o'rniga tenglik va adolatga asoslangan barkamol davlat tuzumi ideali mutafakkirlarga ilhom berar edi. SHu munosabat bilan huquqiy, ma'naviyaxloqiy va siyosiy falsafaga e'tibor kuchaydi. Xuddi shu ehtiyojlardan kelib chiqib, sharq mutafakkirlari Aflotun va Arastu asarlarini - «Davlat», «Qonunlar», kabi asarlarni tarjima qilish va sharhlashga kirishdilar. Ibn Sinoning fikriga ko'ra –kishilar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni to'g'ri yo'lga qo'yish uchun ham qonunlarga ehtiyoj sezilar ekan, ularni qabul qilishi lozim. Qonunlarni xalqqa yetkazish va ijro etish uchun esa, avvalo, xalq bu qonunlarga ishonish kerak. Ibn Sinoning eng yirik asarlaridan biri «Ash-SHifo» inson va jamiyatni ma'naviy poklash, ijtimoiy-huquqiy illatlarni qanday davolash muammolariga bag'ishlangan.

SHarq Uyg'onish davri mutafakkirlarining insonlar ahil yashaydigan jamiyat qurish, ijtimoiy illatlarni yo'qotishga intilishlar ularning gumanistik ruhidan -insonga mehr- muhabbatidan, insonlarning baxt-saodatga erishish muammolarini hal etishga urinishlari bu mutafakkirlarning barcha uchun bir xil amal qiluvchi adolatli qonunlar haqidagi kambag'al - dehqonlarning orzu-armonlarini aks ettirdi. Allomaning boshqa asarlari ham rus va o'zbek tillariga tarjima qilingan[3] «Kitob al ahl al-madinat al-fozila» (Fozil shahar odamlarining qarashlari haqida risola) asarida Farobiyning ijtimoiy-siyosiy g'oyalari, davlat tuzilish va komil inson xususida qarashlari batafsil bayon qilingan. Uning fikricha, insonning bu olamga kelishi va yashashidan maqsad - baxt-saodatga erishishdan iboratdir. Fozil jamoa o'zining huquqiy mukammalligi, yashash qonuniyatlari bo'yicha koinotga qiyos qilinadi: koinotaro turli hodisalar va narsalar o'rtasida uyg'unlik, hamjihatlik va hamkorlik Sababi Avval (Xudo) faoliyatining natijasi ekan, xuddi shuningdek, jamiyatda ham turli toifalar o'rtasidagi hamjihatlik va mutanosiblikka Birinchi imom - hukmdor faoliyati, namunali ishlari tufayli erishiladi. Mukammal jamiyatda har bir tabaqa, yaxlit sotsial organizmning ajralmas qismi sifatida, o'zining muayyan funksiyalariga ega bo'lib, shu vazifalarni bajarish bo'yicha ixtisoslashgandir. Bularning ichida eng mukammal shaxs, davlatni idora qiluvchi Birinchi rahbar hisoblanadi. U jamiyatdagi boshqa toifalarning mavjudligi va yashashlarining sababchisi, ularning to'g'ri tashkil etilishi, o'zaro uyg'unligi va tartibga solinishining ham sababchisidir[4], deydi Farobiy. Farobiy yoshlarni tarbiyalash muammosi haqida gapirar ekan, ularni nazorat qilish va saqlash muammosini ham ko'taradi. Ushbu vazifalar nafaqat pedagogikada, balki huquqni muhofaza qilish faoliyatida ham zarur.

YOshlar bilan ishlash murakkab, lekin ular nazorat qilinmas ekan, yomon fe'l-atvor shaharni tanazzulga olib keladi. Hukmdor odamlarning va jamiyatning ruhiy



holatini shu darajada o'rganmog'i lozimki, «unga nafsning qanday holatida odamlar fazilatli ishlarni qila olishi, shahar ahlining kamchiliklari va illatlarini qanday bartaraf etilishi, qanday san'at yo'llari bilan shahar ahli qalblarida yaxshi fazilatlarini shakllantirish mumkin ekanligi hamda bu fazilatlarini qanday vositalar yordami bilan saqlab qolish mumkinligi ayon bo'lishi kerak». Axloqiy fazilatlar va illatlar (huquqbuzarlik) odamlarning kundalik turmushida ko'p takrorlangan xatti-harakatlari natijasida shakllanadi. Yaxshi harakatlar oqibatida fazilatlar paydo bo'ladi, yomon ishlar - turli axloqiy illatlarni keltirib chiqaradi: «Odam bolasi onadan fazilat yoki razolat sohibi bo'lib tug'ilmaydi, xuddi shuningdek, odamto'quvchi va yozuvchi (kotib) bo'lib olamga kelmaydi. Lekin odam tug'ma ravishda (tabiatan) fazilat yoki razolat bilan bog'liq holatiga moyil bo'lishi mumkin. Mana shu holatdan kelib chiqqan holda odam fazilatli yoki illatli harakatlarga moyil bo'ladi. Lekin uning qaysi yo'nalishda borishi tarbiyaga bog'liqdir». Demak, potensial jihatdan har bir odamda fazilat yoki razolatga moyillik mavjud. Ammo tarbiya natijasida undagi fazilatli sifatlarni rivojlantirish, kamol toptirish mumkin, yoki, aksincha, uning tabiatidagi salbiy sifatlarni (razolat) bir tomonlama ustunlik qilishi mumkin. SHu boisdan hamma odamlar bir xil darajada komilikka erisha olmaydi: fazilatga moyil odamlar tarbiya natijasida tobora kamol topadi, razolatga moyil kishilarning esa kamol topishi va ma'naviy yuksalishi ancha sust bo'ladi. YUsof Xos Hojibning mashhur asari «Qutadg'u bilig» («Bilimlar bulog'i», «Baxt-saodat keltiruvchi bilim») uning barcha asarlari orasida muhim ahamiyat kasb etdi. Bu asar o'sha zamon turkiy tilida (uyg'ur tilida) juda mohirlik bilan yozilgan bo'lib, nafaqat falsafiy, balki noyob huquqiy yozma manba hamdir. Asar mazmunida davlatni idora qilish, huquqiy ongli jamoa qurish vositalari qanday bo'lishi kerak, mansab sohiblarining jamiyat (davlat) manfaatlariga munosabati qay tartibda bo'lishi kerak, degan muammolarga alohida e'tibor berilgan. «Qutadg'u bilig»da huquqiy ta'lim-tarbiya, ma'rifat, turli ijtimoiy tabaqalar va kishilar o'rtasidagi huquqiy munosabatlar, davlatni boshqarish xususida bahs qilinadi. «Qutadg'u bilig» asarining bir muhim xususiyati shundaki, unda ko'pgina huquqiy istilohlar, masalan, davlatchilik, davlatni idora qilish, ma'muriyat, ichki va tashqi siyosat, amal va mansab, amaldor shaxslar va boshqa qator masalalarga oid sof turkiy terminlar uchraydi. Bu istilohlar Qoraxoniylar saltanati va davri huquqiy tizimini o'rganishimiz uchun benihoya qimmatli ahamiyatga egadir. O'zbek xalqining huquqiy madaniyati tarixida xotin-qizlar huquqi alohida e'tiborga sazovor. «...O'rta Osiyo xalqlarining urug'chilik-qabilaviy hayoti sharoitida ayollar asosan yuqori martabalarini egallab, juda hurmat-izzatda bo'lganlar. Qadimiy zamonlardagi O'rta Osiyo xalqlarining adabiy yodgorliklari, xalq og'zaki ijodi etnograf M.O.Kosvenning «Matriarxat» asarida, shveysariyalik olim I.Ya.Baxofen «Onalik huquqi» kitobida, ingliz tadqiqotchisi R.Briffolt uch tomlik «Onalar» asarida ilgari surgan ko'pgina odilona g'oyalarni tasdiqlaydiki, bu g'oyalar ibtidoiy madaniyatning (olovni o'zlashtirish, hayvonlarni qo'lga o'rgatish, o'simliklarni parvarish qilish, turar joy bunyod etish, kiyim-kechak, poyabzal, sopol idishlar va hokazolar yasash) asoschilari sifatida ayollarning jamiyatda kattagina rol



o'ynaganliklari haqidadir. O'zbek huquqiy madaniyatining tarixiy ildizlari Markaziy Osiyo mintaqasida shakllangan amaliy davlatchilik an'analariga, xususan Sohibqiron Amir Temur zamonasiga borib taqaladi.

Abu Nasr Forobiyning jahon ilm-fani va ma'naviyat olamiga qo'shgan hissasini gapirishdan oldin, uning hayoti hamda u haqida muarrixlarning bergan ma'lumotlariga to'xtalib o'tishni joizdir. Forobiy 873-yilda Aris suvining Sirdaryoga quyiladigan joyidagi Forob qishlog'ida tavallud topgan. 950-yilda Damashqda vafot etgan. Tadqiqotlarga ko'ra, bu joy SHosh (Toshkent) dan shimolroqda joylashgan bo'lib, u yerda asosan turkiy qabilalar yashaganlar va bu joy keyinchalik O'tror deb ham yuritilgan. Bu haqida Zahiriddin Abulhasan Ali ibn Abulqosim Zayd al-Bayhaqiy (vafoti 565\1169-yil) o'zining «Hikmat sandig'iga qo'shimcha» (Tatimat sinov alhikma) asarida yozishicha: «SHayx Abu Nasr al-Forobiyning oti Muhammad Ibn Tarxon bo'lib, asli Turkistonning Farob degan joyidan. «Ikkinchi muallim» deb taxallus olgan. Islom o'lkalari olimlari orasida undan oldin bunchalik o'tkir odam bo'lmagan edi. U davlatni fozil va uni ziddi bo'lgan davlatlarga bo'ladi. Fazilatli shaharda ilm, falsafa, axloq, ma'rifat birinchi o'rinda bo'lmog'i lozim, deb biladi. Shunda jamiyat yetuklikka erishadi, deydi. Forobiy insonning komaloti uchun xizmat qilgan, hayr - ehsonli ishlar, go'zal insoniy fazilatlarni yaxshilik deb hisoblaydi. Insonning komalotiga tusqinlik qiluvchi dangasalik, bekorchilik kabi yomon odatlar, bilimsizlik, ongsizlik, kasb - hunarga ega bo'lmaslik kabi nuqsonlarni yomonlik deb, kishilarni undan ogohlantiradi. Forobiy hayotning oliy maqsadi baxt - saodatga erishuvdan iborat, kishilar bunga olamni o'rganish, kasb - hunar va ilmlarni o'zlashtirish, ma'rifatli bo'lish orqali erishadi deb qaraydi. Forobiy fozillar shahrining ziddi bo'lgan shahar haqida fikr bildirib, bu shaharlarga (davlatlarga) quyidagilarni kiritadi: johillar shahri, benomuslar shahri, ayirboshlovchilar shahri, adashgan, zalolatdagi odamlar shahridir. Bu shaharlarning vakillari - ayrim odamlar ham fozillarning ziddi bo'lgan odamlardir. Forobiy johillar shahri haqidagi fikrlarini davom ettirib, «johillar shahrining aholisi baxt-saodatga intilmaydi, baxt-saodat nimaligini bilmaydi ham - deb yozadi -chunki, jaholatdagi odamlar hech qachon baxt topmagan va baxt saodatga ishonmaydi ham». Johillar shahri aholisi farovonlik haqidagi tushunchalari to'g'risida shunday yozadi, - «Jaholatdagi odamlar (haqiqiy o'tkinchi, yuzaki narsalarni, mol-dunyoni, jismoniy lazzatlarni, xirsu-shahvatni, obro', amal, shon-shuhratni haqiqiy baxt, farovonlik deb o'ylaydilar. SHu ne'matlardan har biri jaholatdagi odamlar nazarida hayotdan maqsad, baxt-saodat bo'lib ko'rinadi. Albatta, bu dunyoda halol va pok yashashni o'zi uchun hayotiy e'tiqod, oliy maqsad deb biladigan odamlar ko'pchilikni tashkil qiladi. Aynan ana shunday insonlar va ularning ezgu ishlari tufayli bu yorug' olamda ma'naviyat hamisha barqaror bo'lib keladi. Lekin, bunday olijanob fazilatlardan butunlay uzoq bo'lib yashaydigan, hayotning ma'no mazmunini o'zicha talqin qiladigan shaxslar ham oz emas. Ming afsuski, ular o'zini xuddiki dunyoning haqiqiy egasidek, bekamu ko'st, boshqalarning havasini tortadigan umr kechirayotgandek, baxt qushi boshiga qo'ngandek his qilishga urinadi. Tabiiyki, bunday holatlarni ko'rib-kuzatib, o'zi uchun



ezgu niyatlarni yuksak maqsad qilib ko'ygan insonlar qalbida qandaydir ikkilanish va shubha paydo bo'lishi mumkin. Odamlarni o'ylantirib qo'yadigan bunday holatlar hayotda ko'p uchraydi. Bunga qanday izoh berish mumkin? Hammamizga ma'lumki, muqaddas kitoblarimiz va qadriyatlarimiz, buyuk mutafakkir ajdodlarimiz merosi bizni doimo halol mehnat bilan yashashga, mardlik, saxovat va kamtarlikka chaqiradi, lekin, shu bilan birga, hayotda bu kabi da'vatlarga amal qilishga intiladigan odam ko'pincha turli qiyinchiliklar, hatto azob-u uqubatlarga duch kelishini kuzatish qiyin emas. Tan olish kerakki, yuksak ma'naviy tushunchalar bilan yashashga harakat kiladigan odamning bugun ham ko'p mashaqqatlarni, og'ir sinov va to'siqlar, muammolarni yengib o'tishiga to'g'ri keladi.

INTERNET SAYTLARI:

1. <http://akadmvd.uz> (O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi).
2. <http://www.lex.uz> (O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi).
3. <http://natlib.uz> (Alisher Navoiy Nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi).
4. <http://www.stat.uz> (O'z.Res. Davstatqo'm rasmiy veb-sayti.).
5. <http://ziyonet.uz> (ZiyoNET ta'lim portali).